TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-iyul 143-10-138-Q/24 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 13-maydagi 358-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mehanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi PF-70-sonli farmoni va Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 maydagi 358-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi PF-70-sonli farmoni hamda Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 13 maydagi 358-10-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur farmon bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Markaziy bank, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasining bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlash dasturi doirasida:

- hududlarda zamonaviy arxitektura ko‘rinishiga ega 100 mingta kvartiradan iborat bo‘lgan ko‘p qavatli uy-joylarni qurish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatgichlar;

- 2024-yilda ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishning maqsadli ko‘rsatkichlari;

- 2024-yilda ipoteka kreditlari bo‘yicha subsidiyalar to‘lashning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanganligi;

- shuningdek, qurilish tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga bozor tamoyillari asosida ajratilgan kreditlar bo‘yicha kompensatsiya va kafilliklar taqdim etish;

- ko‘p qavatli uy-joylar qurish jarayonlariga “yashil” uy-joy standartlarini keng joriy qilish;

- ipoteka kreditlarini moliyalashtirishga O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” AJ hamda banklarning o‘z mablag‘lari hisobidan kamida 17 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirish;

- kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joy qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash uchun 120 million so‘mgacha ipoteka kreditlarini ajratish;

- banklarning o‘z mablag‘lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlarini Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qayta moliyalashtirish mehanizmlaridan keng foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi inobatga olinsin.

3. Zangiota tumanida 2024-yilda “Yangi O‘zbekiston” massivi hamda uy-joyga talab yuqori bo‘lgan hududlarda quriladigan uy-joylar taqsimoti ilovaga muvofiq tasdiqlasin.

4. Tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi boshlig‘i o’rinbosari (G‘Jo‘rayev), Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (A.Tashxo‘djayev), mahalla yettiligi bilan birgalikda mahallalar kesimida 2024-yilda ipoteka kreditlari bo‘yicha subsidiyalar to‘lashning maqsadli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqsin hamda viloyat hokimligiga taqdim etsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev, “mahalla yettiligi” bilan birgalikda Kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash uchun kredit olgan fuqarolarning muntazam daromad olish imkonini beradigan faoliyat turlari bilan band bo‘lishlarini ta’minlasin.

6. Quyidagilar:

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich Kompaniyaga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 20 yil muddatga Markaziy bank asosiy stavkasidan uch foiz bandga yuqori stavkada 1,2 trillion so‘m miqdorida resurs ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

- ushbu resurslar birlamchi uy-joy bozoridagi kvartiralarni sotib olish uchun 20 yilgacha muddatga Markaziy bankning asosiy stavkasidan ko‘pi bilan sakkiz foiz bandga yuqori bo‘lgan stavkalarda ajratilgan va Kompaniya tomonidan belgilangan shartlarga mos bo‘lgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo‘naltirishi belgilanganligi;

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan, alohida shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i shaklida ochiladigan Ipotekani qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilishi;

jamg‘armaning asosiy faoliyat yo‘nalishlari va mablag‘larini shakllantirish manbalari tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Hikmatov qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini qisqarib ketishini oldini olish maqsadida 2025-yil 1-yanvarga qadar

ushbu Farmon bilan toifasi o‘zgarayotgan sug‘oriladigan yer uchastkalari maydonining besh baravari miqdorida yangi yerlarni o‘zlashtirish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yangi yer uchastkalari Kadastr agentligi tomonidan belgilangan tartibda hisobga olinganidan so‘ng o‘zlashtirilishi belgilansin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari Q.Mahmudov yer uchastkalari elektron auksion savdolariga chiqarilishini, ko‘p qavatli uy-joylar hamda muhandislik-transport kommunikatsiya tarmoqlarining o‘z vaqtida qurib bitkazilishini, ko‘p qavatli uy-joylar qurilishida energiya tejamkor materiallardan foydalanilishi hamda ushbu uy-joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o‘rnatilishini ta’minlashning barcha choralarini ko‘rsin.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev tijorat banklari bilan birgalikda ipoteka kreditlari va subsidiyalarning o‘z vaqtida ajratilishi va moliyalashtirilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev zimmasiga yuklansin.

Tumanda 2024-yilda “Yangi O‘zbekiston” massivi hamda uy-joyga talab yuqori bo‘lgan hududlarda quriladigan uy-joylar
TAQSIMOTI

№	Hudud nomi	Belgilangan reja	
		uy soni	xonadon soni
1.	"Eshonguzar" MFY	1	171
		1	170
		1	164
2.	"Navqiron" MFY	5	399
3.	"Oybek" MFY	1	72
		1	72
4.	"Navbahor" MFY	1	48
		1	48
		1	48
Jami tuman bo‘yicha		13	1192

Tuman hokimi **E.E.RUSTAMOV**